



## **SANOAT KORXONALARNING RIVOJLANISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Sabirov Xasan Nusratovich**

*Xalqaro Nordik universiteti doktoranti (DSc)*

*E-mail: [k.sabirov@nordicuniversity.org](mailto:k.sabirov@nordicuniversity.org)*

*ORCID: 0000-0002-9632-4311*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss4/682](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss4/682)*

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy ishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutining sanoat korxonalarini rivojlanishidagi zarurligi va ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ekspert so‘rovi usullaridan foydalanilgan bo‘lib, 2018–2023-yillar oralig‘ida DXSh asosida amalga oshirilgan sanoat loyihalarining investitsiya hajmi, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, eksport ulushi va yangi ish o‘rinlari dinamikasi o‘rganilgan. Natijalar DXShning investitsiya oqimlarini ko‘paytirish, texnologiya transferini ta‘minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, shaffoflik yetishmasligi, huquqiy noaniqliklar va xususiy sektorni rag‘batlantirish mexanizmlarining zaifligi kabi muammolar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat-xususiy sheriklik, sanoat korxonalarini, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, texnologiya transferi, innovatsion rivojlanish, eksport salohiyati, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ekspert so‘rovi.

### **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Сабиров Хасан Нусратович**

*Докторант (DSc) Международный университет Нордика*

### **Аннотация**

В данной научной работе комплексно анализируются необходимость и значение института государственно-частного партнерства (ГЧП) в развитии промышленных предприятий. В исследовании с использованием методов сравнительного, статистического анализа и экспертного опроса изучены объем инвестиций, производственные показатели, доля экспорта и динамика создания новых рабочих мест в промышленных проектах, реализуемых на основе ГЧП, в период 2018–2023 годов. Результаты показали положительное влияние ГЧП на увеличение инвестиционных потоков, обеспечение трансфера технологий и повышение эффективности производства. При этом были рассмотрены такие проблемы, как недостаточная прозрачность, правовая неопределенность и слабость механизмов стимулирования частного сектора.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, промышленные предприятия, экономическая эффективность, инвестиции, трансфер технологий, инновационное развитие, экспортный потенциал, сравнительный анализ, статистический анализ, экспертный опрос.

### **THE ROLE AND IMPORTANCE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Sabirov Xasan Nusratovich**

*Doctoral student (DSc) of the International Nordic University*

### **Abstract**

This scientific work comprehensively analyzes the necessity and importance of the institution of public-private partnership (PPP) in the development of industrial enterprises. The study used comparative analysis, statistical analysis and expert survey methods to study the investment volume, production indicators, export share and dynamics of new jobs in industrial projects implemented on the basis of PPP in the period 2018-2023. The results showed the positive impact of PPP on increasing investment flows, ensuring technology transfer and increasing production efficiency. At the same time, problems such as lack of transparency, legal uncertainties and weakness of private sector incentive mechanisms were considered.

**Keywords:** public-private partnership, industrial enterprises, economic efficiency, investment, technology transfer, innovative development, export potential, comparative analysis, statistical analysis, expert survey.

### **Kirish**

Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu sanoat korxonalarining samarali faoliyati va barqaror rivojlanishi hisoblanadi. Hozirgi davrda global iqtisodiyotning jadal transformatsiyasi, xalqaro raqobatning ortib borishi, resurslardan foydalanish samaradorligiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi hamda raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi sanoat subyektlaridan moslashuvchan, innovatsion va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga undamoqda. Shu asnoda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlaridan biri bo'lgan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) instituti sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

DXSh mexanizmi iqtisodiyotning turli sohalarida, jumladan sanoat tarmog'ida, davlatning strategik boshqaruv salohiyati va infratuzilma yaratish imkoniyatlarini xususiy sektorning moliyaviy, tashkiliy va texnologik resurslari bilan birlashtiradi. Bu integratsiya natijasida korxonalarda innovatsion ishlab chiqarish tizimlari tashkil qilinadi, ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya jarayonlari tezlashadi va ishlab chiqarish zanjirlarining samaradorligi oshiriladi hamda mahsulot sifatining xalqaro standartlarga muvofiqligi ta'minlanadi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ijtimoiy inklyuzivlik, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) roli muhimdir. Davlat va xususiy resurslar o'rtasidagi bog'liqlikning dolzarbligi barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun davlat-xususiy sheriklik salohiyati bilan kuchayishi bilan e'tirof etiladi. Davlat hokimiyati organlarining funksional afzalliklarini xususiy biznes tuzilmalarining imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirib, DXSh resurslar salohiyatini eng samarali taqsimlashga imkon beradi. Ular strategik, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga olib keladigan innovatsion yondashuvlarni integratsiyalash orqali qator muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Iqtisodchi olimlarning ta'kidlanishicha, DXSh mexanizmi nafaqat kapital qo'yimalarni jalb etish vositasi, balki iqtisodiyotning inovatsion va texnologik yangilanishini hamda ishlab chiqarish samaradorligini jadallashtiruvchi, yangi bozor imkoniyatlarini yaratuvchi muhim institut sifatida qaraladi. J. Yescombe (2014) va A. Akintoye (2015) kabi tadqiqotchilar DXSh modelini iqtisodiy barqarorlik, risklarni taqsimlash va resurslardan samarali foydalanishni

ta'minlovchi mexanizm sifatida ta'kidlashadi. Shuningdek, BMT ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi hisobotlarida DXShning sanoatni modernizatsiya qilishdagi ahamiyati muhim ekanligi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

O'zbekiston sharoitida ham DXSh mexanizmi sanoat korxonalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini keskin tarzda oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim model sifatida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2019-yilda “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi va 2024-yilda “O'zbekiston Respublikasida 2024 – 2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” qabul qilingan qonun, ushbu institutni huquqiy jihatdan mustahkamladi va turli sohalarda, jumladan sanoat tarmoqlarida ham keng foydalanish imkonini yaratdi.

Shu nuqtai nazardan, DXShning sanoat korxonalaridagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish, uning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda istiqbolli yo'nalishlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda DXShning sanoat tarmoqlarida qo'llanilish tajribasi, uning samaradorligini oshirish omillari hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi ko'rib chiqildi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bo'yicha ilmiy adabiyotlarda mazkur mexanizmning iqtisodiy rivojlanish, investitsiya jarayonlari va texnologik modernizatsiyadagi ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotlarda DXShni davlat sektorining strategik imkoniyatlari bilan xususiy sektorning moliyaviy va texnologik resurslarini integratsiyalash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari o'rganib chiqilingan.

DXSh bo'yicha asosiy nazariy va amaliy yondashuvlar J.E.Yescombe (2014) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallif DXShni uzoq muddatli hamkorlik modeli sifatida tavsiflaydi. Yescombe fikricha, ushbu mexanizm davlat uchun moliyaviy yukni kamaytiradi, xususiy sektor esa risk va foydani teng taqsimlash asosida loyihada faol ishtirok etadi.

A.Akintoye, M.Beck va C.Hardcastle (2015) o'z tadqiqotlarida DXShning infratuzilma va sanoat sohasidagi qo'llanilish tajribasini tahlil qilib, uning investitsiyalarni jalb etishdagi ustunliklarini ko'rsatadi. Ularning fikricha, DXSh loyihalari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun aniq huquqiy baza, shaffof shartnomalar va risklarni oqilona taqsimlash zarur.

Jahon banki (World Bank, 2018) va BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE, 2019) hisobotlarida DXShning sanoat rivojiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlanadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh texnologiya transferi, ishlab chiqarish zanjirlarini optimallashtirish va eksport salohiyatini oshirishda samarali instrument ekanligi qayd etiladi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston olimlari ham DXSh masalasini ilmiy jihatdan o'rganib kelmoqda. Masalan, X.X.Abdug'aniyev (2020) DXShning milliy sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishdagi o'rnini tahlil qilib, uning orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkoniyati kengayishini asoslaydi.

Shuningdek, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) hisobotlarida DXShning yirik sanoat loyihalarida qo'llanilish tajribasi, xususan, energetika, kimyo va mashinasozlik sohasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi qonun va unga oid izohli sharhlar milliy adabiyotlarning muhim

manbalari bo‘lib, unda DXShning huquqiy asoslari, turlari va qo‘llanish mexanizmlari yoritilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot sanoat korxonalarining rivojlanishida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining zarurligi va ahamiyatini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv (system approach) qo‘llanilib, DXShning iqtisodiy, huquqiy va institutsional jihatlari kompleks ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, DXShning samaradorligini baholashda “public value creation” (jamoat qiymatini yaratish) konsepsiyasi ham inobatga olindi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida olib borildi:

Nazariy tahlil – DXSh bo‘yicha xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlarini o‘rganish.

Qiyosiy tahlil (comparative analysis) – DXShning sanoat sohasida qo‘llanilish tajribasini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida solishtirish.

Statistik tahlil – O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarda DXSh asosida amalga oshirilgan sanoat loyihalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash va solishtirish.

Ekspert so‘rovi – sanoat tarmog‘idagi mutaxassislar, iqtisodchilar va davlat organlari vakillari orasida so‘rovlar o‘tkazish orqali amaliy muammolar va takliflarni aniqlash.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy asoslari asosan iqtisodiyot, boshqaruv va siyosatshunoslik sohalariga asoslanadi. Bu yondashuv davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Quyida DXSh asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy nazariy tamoyillari va konsepsiyalari keltirilgan:

1. Resurslarni birlashtirish va samaradorlikni oshirish: davlat va xususiy sektor o‘z resurslarini (moliyaviy, texnologik, inson va boshqalar) birlashtirib, yanada samarali loyihalarni amalga oshirishi mumkin.

2. Xavf va foyda taqsimoti: DXSh loyihalarida xavflar va foydalar davlat va xususiy sheriklar o‘rtasida taqsimlanadi. Bu yondashuv xususiy investorlarni jalb qilish va davlat byudjetini kamaytirish imkoniyatini beradi.

3. Ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni uyg‘unlashtirish: davlat ijtimoiy farovonlik, ekologik barqarorlik va ish bilan ta‘minlash kabi maqsadlarga erishishni istaydi. Xususiy sektor esa foyda olishni maqsad qiladi. DXSh modeli bu ikki maqsadni uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

4. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish: xususiy sektor innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etishda yetakchi rol o‘ynaydi. Davlat esa ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Infratuzilma va tarmoqlarni rivojlantirish: DXSh asosida transport, energetika, telekommunikatsiya kabi infratuzilma loyihalari amalga oshiriladi. Bu sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlarni yaratadi.

6. Qonuniy va institutsional asoslar: DXSh loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam qonuniy bazaga ega bo‘lish kerak. Shartnomalar, soliq imtiyozlari, xavfni boshqarish mexanizmlari kabi institutsional tartibga solishlar muhim ahamiyatga ega.

7. Barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish: DXSh modeli sanoat tarmoqlarining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlaydi.

8. Global tajriba va o'zlashtirish: dunyoning ko'plab mamlakatlarida DXSh modeli orqali sanoat tarmoqlari rivojlantirilgan. Bu tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi.

9. Iqtisodiy diversifikatsiya: DXSh yordamida resurslarga bog'liq bo'lmagan yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bu iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

10. Ijtimoiy mas'uliyat va shaffoflik: DXSh loyihalarida shaffoflik va hisobot berish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv korrupsiyani kamaytirish va loyihalarning ijtimoiy maqsadlarga mosligini ta'minlaydi.

DXShning sanoat sohasidagi qo'llanilishi bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi solishtiradigan bo'lsak:

Rivojlangan mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya) DXShni yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirishda faol qo'llab kelmoqda. U yerda DXSh loyihalari asosan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Masalan, Germaniyada sanoat avtomatlashtirish loyihalarining 40 foizi DXSh orqali amalga oshirilib kelmoqda.

Rivojlanayotgan (Hindiston, Turkiya, Qozog'iston) davlatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, DXShni asosan sanoat infratuzilmasini yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va chet el investitsiyalarini jalb etish uchun keng foydalaniladi. Masalan, Turkiyada DXSh mexanizmi asosidagi sanoat zonalarini mamlakat eksportining 15 foizini tashkil etmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston tajribasida esa DXSh mexanizmlari so'nggi yillarda faollashgan bo'lib, 2020–2024-yillarda sanoat yo'nalishida 25 dan ortiq DXSh loyihalari imzolangan, ularning asosiy yo'nalishlari energetika, transport, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga to'g'ri keladi.


Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda DXSh mexanizmlarini rivojlangan davlatlar tajribasidagi innovatsion yondashuvlar bilan boyitishi, loyihalarni faqat infratuzilmaga emas, balki texnologik yangilanish va eksportga yo'naltirishi lozim. Shu bilan birgalikda, Davlat statistika qo'mitasi va Jahon banki ma'lumotlariga tayangan holda, O'zbekistonda DXSh asosidagi sanoat loyihalarining iqtisodiy natijalari tahlil qilindi (jadval).

**1-jadval**

**DXSh asosidagi sanoat loyihalarining iqtisodiy natijalari tahlili (2018–2023-yillar oralig'ida)<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2023-yil	O'sish (%)
DXSh asosida jalb qilingan investitsiyalar (mlrd AQSh dollar)	0,85	4,2	+3,94
DXSh asosidagi sanoat loyihalari soni	7	25	+2,57
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd AQSh dollar)	1,3	5,6	+3,30
Eksport ulushi (%)	6	14	+1,33
Yaratilgan yangi ish o'rinlari (ming)	8,5	27,3	+2,21

Tahlil natijasiga asosan, DXSh orqali jalb qilingan investitsiyalar hajmi 5 yil ichida qariyb **to‘rt barobar** oshgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va eksport ulushi esa sezilarli darajada ko‘paygan. Yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha ham sezilarli ijobiy o‘shish kuzatilgan. Shu bilan bir qatorda, Tadqiqot doirasida 35 nafar iqtisodchi, sanoat sohasi mutaxassislari va davlat organlari vakillari orasida ekspert so‘rovi o‘tkazildi. Natijaga asosan, eng yuqori investetsiya oqimlarini oshishi o‘rin egallagan bo‘lsa, eng quyi ko‘rsatkich rag‘bat mexanizmini zaifligi o‘rin egalladi (rasm).



**1-rasm. DXShning sanoat rivojlanishiga ta‘siri, asosiy muammolar va istiqbollari<sup>2</sup>**

Tizimning moliyaviy va texnologik asoslari mustahkam – investitsiya oqimlari, texnologiya transferi va innovatsion texnologiyalar yuqori baholangan. Biroq, institutsional va normativ muhit zaif – qonunchilikdagi noaniqlik, shaffoflik muammolari va rag‘bat mexanizmining pastligi asosiy cheklov hisoblanadi. Raqamli infratuzilma va samaradorlikni oshirish orqali innovatsion rivojlanish sur‘atlarini tezlashtirish mumkin.

Shunday qilib, xalqaro va milliy manbalar DXSh mexanizmining sanoat korxonalarini rivojlanishidagi hamiyati muhimligi ifodalanmoqda. Biroq, mamlakatimizning iqtisodiy sharoitida ushbu mexanizmni yanada rivojlantirish uchun huquqiy, institutsional va texnologik infratuzilmani takomillashtirish zarurdir. Shu bilan birgalikda, DXSh bo‘yicha shartnomaviy munosabatlarni yanada shaffof qilish, xalqaro standartlarga mos keluvchi

risklarni taqsimlash mexanizmlarini joriy etish hamda normativ-huquqiy hujjatlarda aniq va izchil tartib-taomillarni takomillashtirish lozim hisoblanadi.

DXSh modelini yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot (R&D) va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirish kerak. Raqamli sanoat infratuzilmasini rivojlantirish va "Industry 4.0" konsepsiyasiga mos texnologiyalarni joriy etishda DXSh imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish va rivojlantirishni ham inobatga olish lozim. Bunda bevosita Jahon banki, Yevropa investitsiya banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni hamda chet el xususiy investorlari uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantirish choralarini kengaytirish lozim bo'ladi.

#### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagi tadqiqotdan xulosa qiladigan bo'lsak, Davlat-xususiy sheriklik sanoat korxonalarining modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, DXSh mexanizmi qisqa muddat ichida sezilarli iqtisodiy natijalar berishi mumkin. Rivojlangan davlatlar DXShni asosan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va innovatsion sanoat infratuzilmasi yaratishda qo'llaydi. O'zbekistonning hozirgi yo'nalishi esa ko'proq infratuzilma va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, kelgusida innovatsion yo'nalishlarga o'tish zarur.

2018–2023-yillar oralig'ida DXSh asosida jalb qilingan investitsiyalar hajmi qariyb to'rt baravar oshgan, eksport ulushi ikki barobardan ko'proq, ishlab chiqarish hajmi esa uch barobardan ortiq oshgan. Bu ko'rsatkichlar DXShning iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sirini tasdiqlaydi. Mutaxassislar fikricha, DXSh loyihalarida shaffoflik yetishmasligi, normativ-huquqiy bazadagi ayrim noaniqliklar va xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarining zaifligi muhim cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

DXSh loyiholari samaradorligini baholash uchun KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimini muntazam qo'llash. Loyihalar bajarilishining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini har yili tahlil qilib, natijalarni ommaga taqdim etish. Mahalliy sanoat korxonalarini DXSh loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish, shu jumladan moliyaviy va texnik yordam dasturlarini yo'lga qo'yish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yescombe, E. R. (2014). *Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance* (2nd ed.). London: Butterworth-Heinemann.
2. Akintoye, A., Beck, M., & Hardcastle, C. (2015). *Public-Private Partnerships: Managing Risks and Opportunities*. Oxford: Blackwell Science.
3. World Bank. (2018). *Public-Private Partnerships Reference Guide*. Washington, D.C.: World Bank Group.
4. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2019). *Guiding Principles on People-first Public-Private Partnerships*. Geneva: UNECE.
5. Abduganiyev, X. X. (2020). Davlat-xususiy sheriklik asosida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6(3), 45–53.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2019-yil 10-may). "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun. *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami*, 2019-yil, O'RBQ-537-son.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). (2023). *O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini bo'yicha tahliliy hisobot*. Toshkent: ITIM.
8. Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *Sanoat ko'rsatkichlari va DXSh asosidagi loyihalar statistikasi*. Toshkent: DSQ.